

**JAMIYATDA KORRUPSIYA ILLATINI VUJUDGA KELISHI VA
UNI BARTARAF ETISHDA MUHIM OMILLAR**

Meliyeva Parvina

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: korrupsiya tushunchasi bugungi kunning eng zararli harakatlaridan biri bo'lib, ushbu kunning tinchligiga osoyishtaligiga ta'sir etib kelayotgan tahdidning ko'rinishidir. Bu zararli harakatga qarshi barcha xalqimizda qarshi immunitet bo'lishi ushbu kunning dolzarb talabidir.

Kalit so'zlar: korrupsiya, davlat, xodim, qonun, jamiyat, fuqaro, demokratik, saylovchilar, modernizatsiya, siyosat, madaniyat, huquqiy ong, mexanizm, tendensiyalar.

**ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КОРРУПЦИИ В
ОБЩЕСТВЕ И ЕЕ ИСКОРЕНЕНИЯ**

Мелиева Парвина

Студент Термезского государственного университета

Аннотация: концепция коррупции-одно из самых разрушительных действий на сегодняшний день. Это видимость надвигающейся угрозы, влияющей на спокойствие и спокойствие дня. Быть невосприимчивым ко всему нашему народу к этому вредному действию-неотложное требование этого дня.

Ключевые слова: коррупция, государство, работник, закон, общество, гражданин, демократия, избиратели, модернизация, политика, культура, правосознание, механизм, тенденции.

**IMPORTANT FACTORS IN THE EMERGENCE OF
CORRUPTION IN SOCIETY AND ITS ELIMINATION**

Melieva Parvina

Student of Termez State University

Abstract: *the concept of corruption is one of the most destructive actions today. It is the appearance of an impending threat that affects the peace and quiet of the day. To be immune to this harmful action by all our people is an urgent requirement of this day.*

Keywords: *corruption, state, employee, law, society, citizen, democracy, voters, modernization, politics, culture, legal awareness, mechanism, trends.*

KIRISH

Korrupsiya-lotincha soʻzdan olingan boʻlib, aynish, poraga sotilish degan maʼnolarni anglatib, mansabdor shaxsni oʻz mansabi boʻyicha berilgan huquqlarini shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiisteʼmol qilishdan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Albatta jamiyatda bu illatning paydo boʻlishi salbiy oqibatga olib kelib, davlatlarning mintaqaviy obroʻyini, nufuzini tushirishi, iqtisodiy rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi jarayondir.

Afsuski, hozirgi kunda dunyodagi katta-kichik, boy yoki kambagʻal davlatlarning hech birida korrupsiya holati kuzatilmayapti deb aytolmaymiz. Yaʼni poraxoʻrlilik, oʻz mansabidan shaxsiy manfaatlari yoʻlida foydalanayotgan shaxslar barcha davlatlarda uchrab turadi.

Ushbu maqolada ham bunday poraxoʻr insonlarning qilmishi natijasida jamiyat ich-ichidan yemirilib borishi mumkinligi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda rivojlanish izdan chiqishi, inson huquqlarini buzilishiga, demokratik va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetishi, aholining maʼnaviy axloqini yemirishi, qonun ustuvorligi kuchsizlanishi tabiiy hol.

Shu tufayli har bir davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, tepadan qora bulut kabi soya solib turgan korrupsiyani oldini olish maqsadida davlatlarda ushbu illatga qarshi kurashish sohalarini huquqiy munosabatlarini tartibga solish, samaradorligini oshirish, jamiyat a'zolarining ongida korrupsiyaga qarshi murossasizlik madaniyatini kuchaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga bular orasida eng muhimi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va barqaror rivojlanishiga to'siq bo'luvchi korrupsiya balosini bartaraf etishga qaratilgan qator huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganini ham ta'kidlab o'tmoq darkor.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Normativ-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik bazasi, xususan, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlar, ayniqsa, GDPR (General Data Protection Regulation) qoidalari bilan taqqoslandi.

Ilmiy tahlil: Ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro konferensiyalar materiallari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilindi.

Solishtirma usul: Turli mamlakatlarning elektron tijoratda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishni tartibga solish tajribasi o'rganildi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Korrupsiya-bu shaxsning o'z mansab yoki xizmati mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi,shu bilan birga bu nafni qonunga xilof tarzda taqdim etishdir.Korrupsiya illati insoniyat tarixida bevosita qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, bu jazoni oldini olish uchun jazo choralari Qadimgi Bobil podshosi-Hamgapli qonunlarida, Qadimgi Misr fir'avnlari hujjatlarida ham nazarda tutilgan.

Korrupsiya bu avvalo mansabdor shaxslarni o'z mansabini suiiste'mol qilib, avvalo o'zini, so'ngra davlat va fuqarolarning haq-huquqlarini unutgan holda, o'ziga qo'shimcha daromad undirish payida bo'lishdir. Albatta bu na davlatga, na insonlarga foyda keltirmaydi. Aynan mana shuni oldini olish, o'z mansabidan noqonuniy, shaxsiy maqsadlarda foydalangan shaxslarga jazo choralari joriy etish, jamiyatda ushbu illatni ildizi bilan yoq qilish uchun barcha davlatlar va ularning rahbarlari ko'plab qonunlar, farmonlar qabul qilib,ular o'rtasida konvensiyalar bo'lib o'tmoqda.

Jamiyatimizda huquqshunos olimlar tomonidan korrupsiyani quyidagi turlari aniqlangan: Maishiy korrupsiya, asosan mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik ish faoliyatida fuqarolar bilan munosabatlarida manfaatlar to'qnashadi.

Biznesdagi korrupsiya-bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarida uchraydi. Hokimiyat organlari korrupsiyasi-bu demokratik jamiyatlarda siyosiy hukmron doiralar va odil tizimi faoliyatida ko'zga tashlanadi. Misol uchun, qonunga zid ravishda hokimiyat organi va saylovchilarining manfaatlariga zarar yetkazadigan xatti-harakatlar sodir qilinishi tushuniladi.

Shu kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish va modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo‘rlik, mansab mavqeyini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro‘sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tizimiga putur yetishiga, natijada esa davlat hokimiyati faoliyati samaradorligini susayishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish va barham berish siyosati davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat organlari tomonidan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda insonlar ongida shakllangan axloqiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega.

Ya’ni halollik va to‘g‘rilik, adolat va tenglik kabi tamoyillar shaxslarni o‘zaro munosabatlarida turli haqsizliklardan himoya qiladi. Zero, rivojlangan korrupsiyasiz jamiyatni ma’nan yetuk va korrupsiyaga qarshi qarashga ega fuqarolar yordamidagina barpo etish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy majburiyat, balki ma’naviy kuch ham hisoblanishi kerak. Shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashishda

insonlarning ongi, ulardagi to'g'rilik, adolat, ma'naviy tafakkuri haqida so'z ketganda buyuk bobokalonimiz Amir Temurning ham halollik, rostlikni ichki va tashqi siyosatni yurgizishda, oila tarbiyasida, din-u diyonatga rioya etishda bosh qadriyat deb bilganini bilishimiz mumkin.

Sohibqironning tuzuklarida "Rosti rosti", degan yozuv ham "Kuch to'g'rilikdadir" degan ma'noda ifoda etilgan. Rostlik, to'g'rilik-har bir ishda mantiqli yondasha olish, haqiqatni o'z faoliyatining asosiy ko'rsatkichi va mezoni deb bilish, hamma narsani o'z nomi bilan atashga o'tish mexanizmini ifoda etadi. Shu ma'noda insonlarni korrupsiyaga qarshi ongi ularning faol fuqarolik pozitsiyasini ajralmas qismidir. Jamiyatda shu kabi korrupsiyaga qarshi kurashishni keng targ'ib qilmoq kerak.

Chunki bu illat davlatga faqat ziyon keltirishi barchamizga kundek ravshan. Masalan, korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi natijasida demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkaziladi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, ular o'rtasida norozilik, notenglik paydo bo'ladi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi, davlat byudjetiga zarar yetkazadi, davlatlarning yangi taraqqiyot darajasiga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi katta omil hisoblanadi.

Shu tufayli ushbu illatni oldini olishga qaratilgan, davlatlar tomonidan tasdiqlangan qator qonun va hujjatlarni aytib o'tish lozim. So'ngi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishni huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan Byudjet va Bojxona kodekslari, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi", "Tezkor qidiruv faoliyat to'g'risidagi", "Elektron hukumat to'g'risidagi", "Ichki ishlar organlari to'g'risidagi" qonunlar qabul qilindi.

Bular orasida eng muhimi korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yildagi 24-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish choratadbirlar samaradorligini oshirishga, insonlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyani har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan.

Bu qonunni 6-moddasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu qonunning qoidalari samarali ijro etishini ta'minlash, korrupsiyaning holati va tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasini" 10, 83 va 84-maqсадlarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari keltirilgan. Jahon tajribasiga ham e'tibor qaratsak, korrupsiyaga qarshi kurashish reytingida Daniya, Yangi Zelandiya, Finlandiya, Singapur va Shvetsiya kabi davlatlar peshqadamlik qilmoqda. Bu davlatlar korrupsiyani ildizini batamom quritish borasida amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof etilgan holda, ularning tajribasi butun jahon miqyosida keng qo'llanmoqda.

XULOSA

Ushbu illatga kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida O'zbekiston 2008-yilda BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga qo'shildi. Shu kabi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar bu illatni yo'q bo'lishiga turtki bo'ladi, albatta. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda korrupsiyasiga qarshi kurashish sohasida huquqiy munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi chora-tadbirlarni oshirishda, jamiyatimizda bu illatga qarshi insonlar ongida murosasizlik munosabatini qaror toptirishda idoralararo ma'lumotlar bazasini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini, jumladan videokuzatuv tizimlari, elektron hisobkitob va almashinuvini keng joriy etish ijobiy foyda beradi. Undan tashqari Insonlarni qanoat sohibi bo'lishi, o'z ehtiyojlarini qondirishni noqonuniy yo'lini o'ylashi emas, balki qo'shimcha, halol yo'l bilan daromad qilib ham o'z maqsadlariga erishish mumkinligini bilmoq kerak. Zero, poraxo'rlik nafaqat qonunda, balki islom dinimizda ham qoralangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Akayeva. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat tizimi. Namangan-2024.
2. A.Sh.Bekmurodov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Toshkent. "Akademiya", 2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev-Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonuni. Toshkent sh. 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni loyihasini kiritish haqida qonunchilik tashabbusi. Toshkent sh. 2016-yil 14-oktabr.

5. Khursandovna, K.G. (2022). From the history or the peculiar deve Development of the national culture of the Surkhandarya people. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 141-146.

6. Худайбердиева Г.Х., Алланазаров М.М. Ёшларни ғоявий тарбиялашнинг усуллари, шакллари ва воситалари // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 1.

7. Худайбердиева, Г.Х. (2020). Сущность и особенность и особенности педагогической профессии, её развитие. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 180.

8. Khudaiberdieva Gulnora Khursandovna ACTIVITIES OF CULTURAL INSTITUTIONS IN SURKHANDARYA DURING THE SOVIET REGIME. Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 4, No. 5, 2025. ISSN: 2181-4392. 81-82.